

The value side of this concept is characterized ambivalently evaluative attitude of representatives of English and Karakalpak speaking linguistic culture towards childhood as a period of human life. On the one hand, children are valuable, childhood is associated with the best time of life; on the other hand, in modern society there is a tendency to voluntarily refuse children and related concerns (signs of “voluntary childlessness”, “problems of growing up” (“a child at heart”), “Peter Pan syndrome”).

In addition, society does not approve of adult representatives of society traits such as immaturity, childishness, infantilism especially in Karakalpak society. In the study of the culture, the child acts, first of all, as an object of education.

The following pedagogical settings are universal: children need to be taught (and from an early age), children cannot be spoiled, parents are an example for children. In both English and Karakalpak culture, people regard a child as the greatest value, believe that love is family which is the basis for successful upbringing and a prerequisite for further successful and happy life.

REFERENCES

1. Усенова, Г.А. Лингвокультурологические особенности идентификаторов концепта “Mother/Ана”. Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по философическим наукам. – Нукус, 2021.
2. Косычева, М.А. Английские номинации детей [Текст] / М.А. Косычева // Вестник Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение. Вып. 53 - № 11 (226) 2011. - Челябинск, 2011. С.84 - 88 (0.5 п.л.) - ISSN 1994-2796 - тираж 1 000 экз.;
3. Косычева, М.А. Концепт CHILDHOOD: особенности вторичной номинации [Текст] / М.А. Косычева // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Том 13, номер 2(4) июль-август 2011. - Самара, 2011. - С. 949-954 (0.6 п.л.) - ISSN 1990-5378 - тираж 300 экз.

DICTIONARIES

1. Қарақалпақ тили тўсиндирме сўзлиги
2. dictionary.cambridge.org

MADANIYATLARARO MULOQOTNI O'RGANISHNING ASOSIY MAQSADLARI

*Primbetov Aybek Baxadirovich
Karamatdinova Aziza Arepbay qizi
Qorao'zak tumani maktab va maktabgacha
ta'lim bo'limiga qarashli 12-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchilari*

Madaniyatlararo muloqot ikki yoki undan ortiq har xil madaniyatlar vakillari o'rtasida bo'ladigan muloqotning alohida bir turidir. Unda o'zaro ta'sir etuvchi madaniyatlar o'rtasida axborot va madaniy qadriyatlar almashinishi yuz beradi. Madaniyatlararo muloqot jarayonlari faoliyatning spetsifik shakli bo'lib, u faqat chet tilini bilish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki boshqa xalqlar moddiy va ma'naviy madaniyatini, dini, qadriyatlari, axloqiy mo'ljallarini, dunyoqarashi tasavvurlarini bilishni ham talab etadi. Ular barchasi qo'shilib muloqot bo'yicha partnyorlar xulq-atvori modelini belgilaydi.

Hozirgi davrda madaniyatlararo muloqot sohasidagi tadqiqotlarning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- madaniyatlararo muloqot predmetining metodologiyasini va tushunchalar apparatini aniqlash;
- madaniyatlararo muloqotning boshqa fanlar qatoridagi o'rnini ochib ko'rsatish;
- madaniyatlararo muloqot ishtirokchilarining madaniy tushunish, kommunikativ xulq va unga tolerantlik bilan munosabatda bo'lishning konkret ko'rinishlarini to'g'ri talqin etish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- boshqa madaniyat vakillari bilan aloqa qilishda ularning malaka va ko'nikmalariga o'qitish metodologiyasini ishlab chiqish [4;110].

Hozirgi davrda madaniyatlararo muloqot bo'yicha yangi tadqiqotlarda ikkita metodologik yondashuv qo'llaniladi:

1) «madaniyatni kognitiv tizim sifatida tushunish», ushbu qarash V.Gudenafiga tegishli [3:48].

2) Madaniyatni «simvolik tizim» sifatida tushunish, bu K.Girsga qarashli [2;15].

Kognitiv yondashuv tarafdorlari tilshunoslikga asoslanadi va uni shunday aniqlashga intiladi: «madaniy namunalar» va «madaniy standartlar»- «ular muayyan madaniyat vakillari tomonidan va shaxsan o'zi va boshqalar uchun ham normal deb qaraladigan, o'z-o'zidan odatdagicha va tabiiy majburiy hisoblangan har qanday qabul qilish usuli, tafakkur turi, baholash va xulq-atvor tarzidir» [5;409]. Ushbu madaniy standartlar asosida «o'zining» va «boshqalarning» xulq-atvori aniqlanadi va tartibga solinadi. Simvolik yunalish tarafdorlari madaniyatni yaxlit qoidalar to'plami deb qaraydi.

Hozirgi tarixiy bosqichda, ya'ni madaniy aloqalar shiddat bilan rivojlanayotgan, insonlararo aloqalar kanallari va sohalari kengayayotgan bir davrda o'qish va o'rgatish sohasi istiqbollarida, yaxlit ta'lim konsepsiyasida o'zgarishlar bo'lishi tayin. O'qitishda madaniyatlashish funksiyasi, ta'lim esa «madaniyatni rivojlantirish mexanizmi, olam va undagi inson manzarasini shakllantirish» asosi bo'lib qoladi. [1;2004]

Chet tilini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida har xil milliy madaniyatlar sharoitida adekvat aloqa qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan madaniyatlararo va ko'p tilli shaxsni shakllantirish masalasi ilgari surilmoqda, ta'limda esa ijtimoiy madaniy yo'nalish (kommunikativ konsepsiya bilan bir qatorda) yetakchi hisoblanmoqda. Madaniyatlararo o'qitish begona madaniyat va uning qadriyatlarini tushunishi va uni adekvat qabul qilishni anglatadi.

Yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqib, madaniyatlararo muloqot masalalarini ishlab chiqish uchun uning quyidagi aspektlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi:

1. Lingvistik: verbal bosqichda madaniyatlararo aloqani ta'minlovchi til spesifikasiyasi bilish (milliy-madaniy komponentga ega bo'lgan til birliklari; fon, ekvivalentiga ega bo'lmagan leksika, realliklar, milliy markirlangan idiomatika va b).

2. Paralingvistik: muloqot aktida noverbal aloqa vositalarini va noverbal xulq spesifikasiyasi bilish.

3. Etnopsixologik: bizni qurshab turgan olamni, milliy xususiyatlarni, mazkur madaniyat vakillari mentalitetini qabul qila olish, chunki ular muloqot jarayonida ularning xulq-atvorini belgilaydi va ularni bilish kommunikativ muvaffaqiyatsizlikdan va madaniy shokdan forig' bo'lishni ta'minlaydi.

4. Pragmatik: so'zga va frazeologiyaga, hamsuhbatning xulq-atvoriga adekvat reaksiya berish uchun va kul'turologik xatoliklarga yo'l qo'yimaslik uchun aloqa qilish etiketini, ijtimoiy xulq-atvor qoidalari va normalarini bilish.

Etnografik: mazkur xalqning turmush tarzi xususiyatlarini, an'alarini, moddiy va ma'naviy madaniyatini bilish, shuningdek, uning milliy madaniyati realliklarini, ular madaniyatining o'z madaniyatidan farqli jihatlarini bilish. Ular to'laqonli muloqot uchun zarur bo'lgan shaxsning fon bilimlarida, badiiy adabiyotini tushunish kabilarda aks etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet tillarini o'rganish va undan xalqaro aloqalar vositasi sifatida foydalanish bugungi kunda ushbu tillar vakillari madaniyatini, mentalitetini, milliy xarakterini, turmush tarzi, dunyoni idrok etishini, urf-odati, an'alarini chuqur va har tomonlama o'rganmasdan turib sira mumkin emas. Mana shu ikki xil bilimlarni- til va madaniyatni bilgandagina samarali va sarmahsul aloqa amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdichevskiy A.L. Sovremennie tendentsii v obuchenii inostrannomu yaziku v Yevrope // <http://www.gramota.ru/mag-arch.html> [2004].
2. Geertz C. The Interpretation of Cultures.-New York, 2003.-14-15 p.
3. Goodenough W.H. Cultural Anthropology and Linguistics // Report on the Seventh Annual Round Table Meeting on Linguistics and Language Study.- Washington, 1997.- P.48.
4. Hall E. Understanding cultural Differences.- Yarmouth: Free Press, 2001- p 110.
5. Yorkey R.C. English for international communication.- New York: American book, 2008.-409p.